

## MAHALLANING JAMIYAT IJTIMOYIY TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

**Sadullayev Umidjon Shokir o'g'li**

*Osiyo xalqaro universiteti, Tarix va filologiya kafedrası o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** *Mahallaning jamiyat ijtimoiy hayotidagi o'rnini, ijtimoiy muammolarni hal etishdagi rolini ochib berish, uning tarbiyalovchi funksiyasini ko'rsatish-maqola mazmunining asosini tashkil etadi, Bugungi kundagi zamonaviy mahallalardagi ijtimoiy muammolarni hal etishning yangi tizimi haqida maqolada ma'lumot beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *mahalla, tarbiya, ijtimoiy muammolar, "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari", "Temir daftar".*

Hozirgi globallashuv jarayonida, mahalla jamiyat hayotining barcha sohalarida ijtimoiy institut sifatida yanada rivojlanib bormoqda. Qadimdan mahalla mahalliy hokimiyatning ajralmas bo'g'ini hisoblangan. Mahalla tarixi qadim zamonlarga borib taqaladi. O'lkamiz tarixi haqida ma'lumot beruvchi eng qadimgi manba hisoblanmish "Avesto" da ham oilalarning ma'lum hududda uyushib yashaganligi haqida ma'lumotlar bor. IX asr tarixchisi Muhammad Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida Buxoroda ko'plab mahallalar, guzarlar, mavjud bo'lganligi haqida yozadi<sup>2</sup>. Yurtimizning turli joylaridagi mahallalar hududiy o'ziga xosliklarga ega. Buxoro shahri mahallalari vujudga kelishi va tarixiga bag'ishlangan O.A.Suxarevaning asarlari nan'anaviy o'zbek mahallalari tarixiga bag'ishlanganligi bilan diqqatga sazovordir.<sup>3</sup>

Qadimdan o'zbek mahallalari jamiyat ijtimoiy hayotining tayanchi bo'lgan, xususan, istiqloq yillarida o'z-o'zini boshqarish organlari tizimini isloh qilish, ularning moddiy-texnik bazasini yaxshilash borasida tizimli ishlar amalga oshirildi. Mahalla tizimini takomillashtirishning huquqiy asoslari yaratildi. Yangi O'zbekistonda mahallalarga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Mahalla-taraqqiyot poydevori bo'lib xizmat qilyapti. Bugungi kundagi zamonaviy mahallada hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli kabi lavozimlar joriy qilindi. Ular bevosita prezidentning joylardagi vakili sifatida mahalla aholisining o'ziga tegishli qatlamlari bilan faoliyat olib boradilar. Bevosita mahalla hayotidagi ijtimoiy muammolarni yechishda joylarda jonbozlik ko'rsatadilar. Yuqoridagi lavozimlarning faoliyatini tartibga solish maqsadida huquqiy asos ham yaratildi. Jumladan, "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi prezident farmoni<sup>1</sup>, "Mahallada yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi prezident

<sup>2</sup> Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy. Buxoro tarixi. -Toshkent, 1993

<sup>3</sup> Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодалного города Бухары. -Москва: Наука, 1978. -С.22

<sup>1</sup> Prezident farmoni. 2021-yil 3-dekabr 29-son

qarori<sup>2</sup>, Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi prezident farmoni<sup>3</sup>.

Mahalla yoshlarini ilm-fanga va kasb-hunarga yo'naltirishda, ishsizlarni ish bilan ta'minlash va bandlikka ko'maklashish masalalarida muhim ijtimoiy obyekt hisoblanadi. Aholi muammolarini hal etish, tadbirkorlikni rivojlantirish, yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish, oila va xotin-qizlar masalalari –bugungi kundagi zamonaviy mahallalarning muhim ijtimoiy muammolari hisoblanadi. Yuqoridagi masalalar bilan ishlashning samarali tizimini yaratish maqsadida har bir mahallada "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" shakllantirildi.

"Temir daftar –ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti o'g'ir hamda sektor rahbarlari tomonidan alohida nazoratga olingan oilalarni qayd etish, muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib borish bo'yicha ma'lumotlar bazasi.

"Ayollar daftari – ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlashga, bilim va kasb o'rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo'lgan, ishsiz xotin-qizlarning muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib borish bo'yicha ma'lumotlar bazasi. Ushbu daftarga kiritish bo'yicha xotin-qizlar faoli amaliy ishlar olib boradi, ma'lumotlar bazasini yaratadi va nazoratini olib boradi.

"Yoshlar-daftari" - ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlashga, bilim va kasb o'rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo'lgan, ishsiz yoshlarning muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib borish bo'yicha ma'lumotlar bazasi. Yuqorida sanab o'tilgan ma'lumotlar bazalari mahallalardagi ijtimoiy muammolarni hal etish jarayonini sezilarli darajada yaxshilaydi. Mahalla tarixan yosh avlod uchun ezgulik beshigi, tarbiya o'chog'i, urf-odat an'analar shakllangan maskan bo'lib kelgan, insonlarning o'zaro mehr-oqibati, muruvvatli, saxovatli bo'lishida va o'ziga xos jamoani shakllantirishda mahalla muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston jamiyatida mahallalarning tarbiyalovchi vazifasi shu qadar sezilarli, ko'pincha "mahalla" va "tarbiya" tushunchalari yonma-yon ishlatiladi. Xususan, tushunchasining haqiqiy ma'nosi bu insonning o'zi va o'z xulqi haqidagi tasavvurining to'g'ri va xolis bo'lishini ta'minlovchi murakkab jarayon bo'lib u bevosita uni o'rab turgan insonlardan, oila a'zolari, mahalladoshlari, yor-do'stlaridan ayri tushunilmaydi. Ya'ni mahalla hamisha fuqarolarning xulq-atvorini, oilalarning yashash tarzidan xabardor bo'ladi, kerak bo'lsa ularning xulqiga yaxshigina ta'sir ko'rsata oladi<sup>1</sup>. Mahalla yosh avlodni tarbiyalashdagi, ularni urf-odat va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham "Bir bolaga yeti qo'shni ota-ona", "Bir bola tarbiyasiga yeti mahalla ota-ona" naqllari bejizga aytilmagan. Har bir mahalla fuqarosi barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishda o'zini javobgar deb bilishi kerak

Xulosa qilib aytganda jamiyat hayotidagi muammolar bo'lgan kambag'allikni qisqartirish, aholi bandligini ta'minlash, ishsizlik masalalarida mahallaning hal qiluvchi

<sup>2</sup> Prezident farmoni.2022-yil 19-yanvar 92-son

<sup>3</sup> Prezident farmoni.2022-yil 1-mart 81-son

<sup>1</sup> Alimova G., Yo'lchiyeva G., Mirahmedova M. Fuqarolar yig'inlari huzuridagi "Ota-onalar universitetlari" ishini tashkil etish. -Toshkent:2014. -B.4-7

roli oshib bormoqda. Mahalla tizimida ishlaydigan munosib nomzodlar tanlanib o'z o'rniga qo'yilishi yuqoridagi muammolarni bir qadar osonlashtiradi. Muammolar o'z vaqtida yechim topadi. Bu esa mamlakat ijtimoiy hayotining barqarorlashuviga sabab bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an- Narshaxiy. Buxoro tarixi.-Toshkent,1993
2. Сухарева О.А Квартальная община позднефеодалного города Бухары.- Москва:Наука,1978.-С.22
3. Sadullayev, U. . (2023). THE ROLE OF WOMEN IN NEIGHBORHOOD MANAGEMENT IN UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(9), 132–135.
4. Shokir o'gli, U. S. (2023). MILLIY QADRIYATLARIMIZ ASROVCHISI. *Journal of new century innovations*, 35(1), 79-80.
4. Prezident farmoni.2021-yil 3-dekabr 29-son
5. Prezident farmoni.2022-yil 19-yanvar 92-son
6. Prezident farmoni.2022-yil 1-mart 81-son
7. Sadullayev, U. . (2023). THE ROLE OF WOMEN IN NEIGHBORHOOD MANAGEMENT IN UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(9), 132–135. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24060>
8. Alimova G.,Yo'lchiyeva G.,Mirahmedova M.Fuqarolar yig'inlari huzuridagi "Otonalar universitetlari"ishini tashkil etish.-Toshkent:2014.-B.4-7
9. Orifjonovich, O. A. (2023). METAFORANING KO'P TARMOQLI VA FANLARARO O'RGANILISHI.
10. Bozorova, R. (2021, September). Methods and Means of Cultivating Kindness iIn the Family of the Uzbek People. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 43-44).
11. Ollomurodov, A. (2023). MULTIDISCIPLINARY AND INTERDISCIPLINARY STUDY OF METAPHOR. *Modern Science and Research*, 2(9), 136-139.
12. Sulaymonovna, Q. N., & Orifjonovich, O. A. (2022). KONSEPTUAL METAFORALARNING LINGVOMADANIY HAMDA KOGNITIV XUSUSIYATLARI VA TIL TARAQQIYOTIDA TUTGAN ORNI. *Scientific Impulse*, 1 (3), 594-600.
13. Bozorova, R. (2021, September). Methods and Means of Cultivating Kindness iIn the Family of the Uzbek People. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 43-44).